

VATANPARVARLIK RUHI IFORI FREDERIK SHOPEN IJODIDA

Atkiyoyeva Ruxshona

Fargʻona davlat universiteti
Sanʻatshunoslik fakulteti
“Musiqqa taʼlimi” yoʻnalishi
1-bosqich talabasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan, polyak kompozitori, mohir sozanda, fortepiano ijrochisi, Buyuk Fransuz revolyutsiyasi davri guvohi Frederik Shopenning kitob zarvaroqlarida yozilmagan hayotiy kechinmalari va chuqur tahlil qilinmagan asarlari haqida fikrlar yuritiladi. Qolaversa, uning asarlaridagi vatan ruhining xalq kuylarida yorqin ifodalanishiga doir mulohazalar atroflicha keltiriladi.

Kalit soʻzlar: kompozitor, royal, miniatyura, preludiya, mazurka, polonez, menuet, badiiy etyudlar, ballada, skerso

XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan Shopen kompozitor boʻlishi bilan birga juda mohir sozanda, fortepiano ijrochisi ham boʻlgan. Shuning uchun u asosan fortepiano sozi uchun asarlar yozgan. Kompozitor bu sozni barcha xususiyatlarini juda yaxshi bilgan, fortepiano ijrochiligi sanʻatini yangi ijro usullari bilan boyitgan.

Royal - Shopenning sevimli cholgʻu sozi boʻlgan. Bu universal cholgʻu boʻlib, unda ijro orqali inson qalbining eng nozik tomonlarini, sirli fikrlarini, qalb tugʻyonlarini ifodalab berish mumkin. Nafaqat Shopen balki koʻplab kompozitorlar ham aynan shu cholgʻu sozining oʻzidagina oʻlmas, umrboqiy asarlar yaratgan. Shopenning fortepiano uchun yozgan asarlarini eshitgan kishining koʻz oʻngida simfonik orkestrning qudratli ijrosi gavdalanadi. Shopen fortepiano ijodining janrlari va shakllari musiqiy romantizmning eng muhim sifatlarini umumlashtiradi. Shopen ijodida miniatyura va yirik shaklli asarlar bir xil oʻrin egallaydi. U romantik asosda preludiya janrini qaytadan jonlantirdi, badiiy etyudning ajoyib namunalarini yaratdi. Mazurka, polonez, balladani mustaqil fortepiano janrlari sifatida butun dunyoga tanitdi. Shopen yaratgan noktyurnlar tungi tabiat lirikasining yorqin va betakror namunalaridir.



Frederik Shopen 1810-yil 1-martda Polshada tavallud topgan. Musiqaga bo‘lgan qiziqishi onasi tomonidan polyak xalq kuylarini eshitishi ta’sirida erta vujudga kelgan. Yoshligidan fortepiano ijrochiligiga qiziqqan va umrining so‘ngiga qadar shu cholg‘u soziga sodiq holda asarlarga jon bergan.

1830-1831 yillar Venada, 1832-yil Parijda yashab, aynan shu davrlarda ko‘plab asarlar yozgan.

Shahrining xalqchil, vatanparvarlik, romantik ijodi polyak musiqasini jahonga tanitdi. Eng nozik ruhiy jarayonlarni aks etgan, ayni paytda kuchli dramaturgik rivojiga ega bo‘lgan asarlari barcha ovozlarni kuychanligi, garmoniyaning o‘ziga xosligi, o‘zgarishlarga boy va kompozitsion mukammal rivoji bilan ajralib turadi. Forteplano uchun 2 ta konsert, 3 ta sonatasida Betxoven simfonizmini an‘analarini davom ettirdi.

O‘smirlik davrida u yashab turgan muhit bevosita Fransuz revolyutsiyasi to‘ntarilishi davriga to‘g‘ri keladi. Oilasining iltimosiga ko‘ra u majburan Fransiyaning Parij shahriga ko‘chib ketadi. U yerda urush va notinchlikdan yiroqda bo‘lishiga

qaramay vatan sogʻinchi iztirobi bilan ijod qilishdan toʻtamaydi. Bir necha bor uyga qaytishga harakat qiladi, lekin ming afsuski uning oilasi va doʻstlari uni Polshaga kelishiga qarshilik koʻrsatadi.

Shopen ijodida juda koʻp yangiliklarni uchratish mumkin. Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek u romantizmning yorqin vakilidir. Uning fortepiano asarlarida romantizm oqimining asosiy mavzusi boʻlgan insonning ichki dunyosi, ruhiy olami, his tuygʻulari va ichki kechinmalari mahorat bilan tasvirlab berilgan. Shuni anglash mumkinki, Buyuk Fransuz revolyutsiyasi yangi romantizm oqimini paydo boʻlishiga turtki boʻldi. Sababi, urush va notinchlikdan charchagan xalq bevosita hayolot olamiga shoʻngʻishni, orzu qilishni va doim qora kuchlar ortidan yorugʻ kunlar kelishini orzu qilishdan toʻxtamas edi.

Shopen ijodiy yoʻli davomida oʻn yettita vals yozgan. Ularni musiqaning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shoʻx, quvnoq xarakterdagi valslar kiradi. Ikkinchi guruhga gʻamgin, lirik xarakterdagi valslar kiradi. Bu valslarda vatanni sogʻinish, uni qoʻmsash hissi ifodalangan. Bu valslarga raqs tushib boʻlmaydi. Shopen valslari oʻsha davridayoq katta shuhrat qozongan. Ularning koʻpchiligi simfonik orkestr ijrosi uchun moslashtirilgan.¹

Etyud-pedagogik maqsadlarda yozilgan asar boʻlib, u ijro texnikasini oshirishga yordam beradi. Ammo Shopen yaratgan etyudlar haqida bunday deb boʻlmaydi. Ularni ijro etish uchun oʻquvchi emas, balki mohir ijrochi boʻlish kerak. Shopen etyudlari yuksak darajadagi badiiy etyudlardir. Kompozitor yigirma yettita etyud yozgan. Ularning barchasi murakkab asarlar boʻlib, ijro etish juda katta mahorat va tabiiy qobiliyatni talab qiladi. Etyudlar deyarli pessa darajasiga yetkazilgan. Bu etyudlar gʻamgin, lirik, fojeali xarakterda. Vatan mavzusi aks ettirilgan 3 sonli mi major etyudi bunga yorqin misoldir. 12-sonli do minor etyudi juda mashhur boʻlib, “inqilobiy etyud” degan nomni olgan. Unga kompozitor Polshadagi xalq qoʻzgʻolonini tasvirlagan. Shopen yaratgan etyudlar bu janrning kelajakda rivojlanishiga muhim zamin yaratdi.²

Shopen asarlari kompozitor hayotlik davridayoq katta shuhrat qozongan. Bugungi kunda ham Shopen barcha musiqa sanʼati ixlosmandlari va butun jahon fortepiano ijrochiligining eng sevimli kompozitorlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kompozitorning yaratgan musiqiy asarlari bolalar musiqa va sanʼat maktablari, ixtisoslashtirilgan sanʼat maktablari, texnikum va konservatoriyada ijro qilinishi majburiy boʻlgan asarlar roʻyxatidan joy olgan.

¹ “Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti”. B.R.Yakubov. Darslik uchun qoʻllanma.

² Xorijiy musiqa adabiyoti oʻquv qoʻllanmasi. A.X.Trigulova. 2009-yil.

1927-yildan Vorshavada Shopen nomidagi xalqaro pioninotchilar tanlovi o‘tkazilmoqda. 1934-yildan Shopen instituti (1950-yildan Shopen jamiyati), 1932-yildan Jelyazova Molyada memorial, uy-muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda.¹

O‘zbekistonda shahrining barcha asarlari pedagogik va konsert repertuarlaridan o‘rin olgan, Navoiy teatrida “Shopeniana” baleti sahnalashtirilgan va hozirgacha ijro faoliyatini olib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti”. B.R.Yakubov. Darslik uchun qo‘llanma.
2. Xorijiy musiqa adabiyoti o‘quv qo‘llanmasi. A.X.Trigulova. Nashriyot 2009.
3. O‘zbekiston ensiklopediyasi kitobi.
4. Ziyouz.com elektron kutubxonasi adabiyotlari.
5. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
6. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
7. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
8. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
9. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
10. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN’ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
11. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

¹ O‘zbekiston ensiklopediyasi. 2-jild.

12. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
13. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
14. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG ‘USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
15. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
16. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
17. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
18. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO’LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
19. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.
20. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
21. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).